

## Magistraturani Xitoyda davom ettirishni hohlaysizmi, unda tanlovda ishtirok eting.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti biturvi kurs talabalari va magistrantlariga Xitoyning "[Anhui Agricultural University the school for engineering](#)"da magistraturasida o'qish uchun tanlov e'lon qiladi.

### **O'qish muddati ikki yil:**

1 yil -xitoy tili

1 yil - magistratura (tegishli mutaxassislik bo'yicha).

O'qish 2020 yilning sentyabr oyidan boshlanadi. Grant tanlovida ishtirok uchun xujjatlar 1 fevralgacha qabul qilinadi.

Tanlov g'oliblari sentyabr oyidan o'qishga qabul qilinadi, oyiga 400 \$ stipendiya to'lanadi, turar joyi ta'minlanadi, Xitoyga kirib chiqish 4 yilga viza beriladi. Aviabiletlar, elchi xonada viza olish talaba xisobidan bo'ladi.

### **Tanlovga talab etiladigan xujjatlar:**

- 1.Diplom ilovasi bilan (hozir talabalarning reyting daftarchasidagi baholar hisobga olinadi) - nusxasi.
- 2.Pasport
- 3.Rasm
- 4.Tibbiy ma'lumotnoma
- 5.Izlanishlar rejasi
- 6.Tavsiyanomalar-2ta(1 ta ilmiy rahbardan, 1 ta institut rahbariyatidan).
- 7.Ielts, Xitoy tili yoki ingliz tili sertifikat ( advanced level)
- 8.Chop etgan maqolalari, kamida 2 ta

**Bu xujjatlarni tayyorlab tanlov komissiyaga topshirish kerak.**

### **Murojaat uchun:**

71 237 0972-Umumtexnik fanlar kafedrası

94 602 4143-Turkmenov X.